

**LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR”  
ROMANIDA PEYZAJ TASVIRI**

**Dilorom Xamidova,**  
*Samarqand davlat universiteti*  
*tayanch doktoranti*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada mustaqillik davrining yirik vakillaridan biri Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romaniga e‘tibor qaratildi. Muallifning peyzaj yaratishdagi mahorati ochib berildi.

*Kalit so‘zlar:* tasvir, peyzaj, roman, “Jaziramadagi odamlar”, badiiy asar.

Badiiy asarda berilgan tabiat manzaralari tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etadigan omillardan biridir. Buning boisi makon tasvirida uning o‘zi qalamga olayotgan joyga munosabati, u yerni qay darajada bilishi, asar qahramonlarining dunyosi va ular istiqomat qilayotgan muhitni nechog‘lik teran his qilinishi anglashiladi. Shuning uchun peyzaj tasviri badiiy asar badiiyatini ochib beruvchi muhim vositalardan biri sanaladi.

“Ko‘pgina asarlarda peyzaj g‘oyatda muhim g‘oyaviy-kompozitsion rol o‘ynaydi”. [1;149-b.] Adabiyotshunos olim Izzat sulton peyzajga quyidagicha ta‘rif bergan: “Badiiy asardagi tabiat tasviri peyzaj(manzara) deb ataladi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshiradi”. [2;116-b.] Ayrim manbalarda badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzarasi peyzaj deya e‘tirof etiladi. Bu bir tomondan to‘g‘ri bo‘lib, bunda boshqa tomondan inson mehnati va qo‘li yordamida yaratilgan hovli, bog‘, xiyobon kabilar chetda qoladi. Abdulla Ulug‘ov bu xususda o‘zining o‘rinli fikrlarini keltirib o‘tgan: “Peyzaj deganda, odatda, tabiat (daryo, ko‘l, o‘rmon, tog‘, osmon, dengiz va boshqa) manzarasi tasviri nazarda tutiladi. Bog‘, ko‘cha, hovli singari inson qo‘li bilan bunyod qilingan joylar tasviri ham peyzajdir. Peyzaj voqealar kechuvchi ochiq makon bo‘lsa, uy-joy, xona, saroy, qasr – yopiq makon va undagi bezak, ashyolar intererdir” (3;70-b.) Nisbatan ixcham va to‘liq ta‘rif “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da keltirilgan: “Adabiy asarda yaratiluvchi voqelikning muhim komponenti, voqelar kechuvchi ochiq va yopiq makon tasviri peyzaj deyiladi. [4] Ma‘lumki, peyzaj tushunchasi rassomchilikdan boshlangan va undan adabiyotga o‘tgan. Badiiy adabiyotda u kitobxonning voqealar rivoji aks etayotgan zamoni, muhitni his qilishi uchun o‘ta muhim unsur hisoblanadi.

Yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida peyzaj tasviri o‘ziga xos tarzda keltirilgan bo‘lib, unda adib makon tasvirini asar voqealaridan alohida ajratmagan holda, asar voqealar rivojiga singdirib yuboradi.

## **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

Romandagi voqealar asarning asosiy qahramonlaridan biri Samadning tilidan bayon etiladi va tabiat va joy tasvirlari ham uning nuqtayi nazaridan kelib hikoya qilinadi. Romanning asosiy qismi asar voqealari bo‘lib o‘tgan 41-sovxoza qarashga posyolkaning tasviri bilan boshlanadi:

“Qishlog‘imiz, to‘g‘rirog‘i, 41-sovxoza qarashli posyolka, uzoqdan qaraganda, paxta paykallari o‘rtasiga to‘kib tashlangan tosh-shag‘al, temir-tersak uyumiga o‘xshab ko‘rinadi. Ilgari bu yerlar yovshanzor cho‘l-u biyobon bo‘lgan. Zamonlar o‘tib, hukumat “oq oltin” davrida olis-yaqindagi daryolarni jilovlatib, katta ariqlar qazdirib bu yerlarga suv keltirgan. Posyolka deganlari andakkina shahar mahallalarining nuqsi urgan qator-qator beton uy-joylar, tosh-shag‘al to‘shalgan ariqlar-u beton yo‘l-yo‘laklardan iborat bir qishloq”[5; 6-b.] Davr talabidan kelib chiqqan holda barpo etilgan posyolka qay maqsadda vujudga keltirilganligi, uning ko‘rinishi qanday ekanligi hikoyachi bola tomonidan uning tasavvuridan kelib chiqqan holda ta‘riflangan. F.Nitshening “Dunyoda narsalar haqidagi tasavvurlardan boshqa hech narsa yo‘q”, degan fikri to‘g‘ri ekani ushbu asarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Ayni bir holat hikoyachi Samadning kayfiyatiga qarab tamomila qarama-qarshi taassurot uyg‘otadi. Masalan, O‘roq bilan Lolaxonning nikoh to‘yidan so‘ng butun bir qishloq va uning odamlarining hayoti va turish-turmushi o‘zgacha bir zavq bilan tasvirlansa, O‘roqning falokatli o‘limidan keyin qishloq tabiati ham mungli, g‘am-g‘ussaga botgandek ko‘rinadi. Asarda yil fasllarining almashinuvi va o‘sha paytda sodir bo‘lgan voqealar o‘zaro bog‘liq holda tasvirlangan. Jumladan, kech kuzning og‘ir kunlarida Umurzoqov O‘roqning urushda halok bo‘lishi-yu, uning tobuti keltirilishi va shundan so‘ng qishning izg‘irinli kunlari boshlanishi mana shu falokatning bevosita davomi sifatida tasvirlangan:

“O‘sha yili qish anchayin sovuq va seryog‘in keldi. Polyolkamiz kulrang bir tuman ichida horg‘in va o‘ychan bo‘zardi. Bir paytlar omonatgina to‘shalgan beton-asfalti o‘yilib, qo‘porilib, o‘nqir-cho‘nqir qiyofaga kirgan yo‘llar shilta-shalabboga belanib yotar edi” [5;150-b.]. Fayzulla akaning xonadonidagi musibatning oqibatlari tabiat tasviri vositasida yanada bo‘rttirilgan, ya‘ni qisqa fursatli quvonchli kunlar ortda qolib, motamsaro oila a‘zolari ushbu kulfatdan bo‘zarishi, ko‘ngillari yig‘idan va g‘amdan pora-pora bo‘lganligi qish tasviri bilan uyg‘unlikda yanada ta‘sirli ifodalangan.

Asar voqealari qishloqqa aylantirilgan jazirama cho‘lda bo‘lib o‘tadi. Garchi cho‘l odamlar tomonidan o‘zlashtirilgan bo‘lsa ham, u yana o‘z holiga qayta boshlaydi: “Kun behad issiq. Quyosh jazava bilan olov purkaydi. Sertuproq, g‘adir-budir yo‘l bo‘ylab ketayotgan ziyoratchilarning oyoqlari ostidan ko‘tarilayotgan chang-g‘ubor issiq havoda hiyla vaqt gangiganday turib qolar, so‘ng lanjlik bilan

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

eshilib-to‘lg‘anib, beton ariq chekkalaridagi sap-sariq yantoq, shuvoq butalariga qo‘nar edi”.[5;185-b.] Mazkur parchadan anglash mumkinki, yozuvchi tabiat hodisalarini xuddi jonlidek tasvirlashga uringan, ya‘ni quyoshning jazava bilan qizdirishi, sertuproq yerlardan ko‘tarilayotgan changning jazirama issiq ta‘sirida lanj bo‘lib qolishi va cho‘l o‘simliklaridan qo‘nim topishi juda ishonarli tasvirlangan. Shuningdek, cho‘lning odamlarga bo‘yin egishdan bosh tortib, sho‘rlanishi va hosildorlikning kamayishi tasviridan muallifning tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kerakligi haqidagi ishorasini anglash mumkin.

Fikrimiz yakunida adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshevning Luqmon Bo‘rixonning peyzaj tasviridagi mahorati xususida bildirgan fikrini keltirishni joiz topdik: “Peyzajdan o‘rinli foydalanish asarning shirasini oshirgan. Tafsilotlarga, voqealar rivojidadagi shiddatga tayanadigan romanga bu xil tasvir toza ruh, yengil badiiy epkin olib kiradi. Luqmon timsollar holatini tabiat manzarasi bilan uyg‘un berishni xush ko‘radi. U odam xush kayfiyatda bo‘lsa, odam unga go‘zal ko‘rinishini, noxush bo‘lsa, qizg‘aldoq ham tikanday tuyulishini juda ishonarli tasvirlaydi”[5; 335-b.] Darhaqiqat, adibning tabiat manzaralarini obrazlarning ichki kechinmalari bilan hamohanglikda tasvirlaganligi romanning badiiy qiymatini oshirgan. Zero, asardagi har bir so‘z o‘z “yuk”iga va vazifasiga egadir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent. O‘zbekiston, 2002.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent. O‘qituvchi, 2005.
3. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. . –Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent. Akademnashr,2013.
5. Luqmon Bo‘rixon. Jaziramadagi odamlar. . –Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
6. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
7. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
8. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
9. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

## **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

10. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
11. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
12. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
13. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.